



Date: 09 June 2026

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI JAMIYATGA MOSLASHTIRISHNING MUHIM OMILI

Xorazm viloyati Urganch shahar 29-sonli maktab psixologi
Abdimova Iroda Botirboyevna
Xorazm viloyati Urganch shahar 28-sonli maktab psixologi
Sultonova Laylo Usmonali qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, maqsadi, tamoyillari hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etish, ularga teng ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Inklyuziv ta'limning afzalliklari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, integratsiya, ijtimoiy moslashuv, teng imkoniyat, ta'lim sifati, pedagogik qo'llab-quvvatlash, inklyuziya.

Kirish Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim g'oyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim – bu jismoniy, aqliy yoki ruhiy rivojlanishida ayrim cheklovlari mavjud bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan ta'lim tizimidir. Inson huquqlarini himoya qilish, ta'limda tenglik va adolat tamoyillarini amalga oshirish inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Har bir bola jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida rivojlanish va bilim olish huquqiga ega. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. "Inklyuziya" so'zi ingliz tilidagi "inclusion" so'zidan olingan bo'lib, "o'z ichiga olish", "qo'shib yuborish" degan ma'nolarni anglatadi. Inklyuziv ta'limning asosiy mohiyati barcha bolalarni, ularning imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat'i nazar, yagona ta'lim muhitida o'qitishdan iborat. An'anaviy yondashuvda imkoniyati cheklangan bolalar maxsus maktab yoki internatlarga yuborilgan bo'lsa, inklyuziv ta'limda ular umumiy ta'lim muassasalarida tengdoshlari bilan birga ta'lim oladilar. Bu esa nafaqat ularning bilim olishiga, balki ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Har bir bolaning qadr-qimmatini tan olish, ta'lim olishda teng imkoniyatlarni yaratish, kamsitishning oldini olish, individual yondashuvni ta'minlash, oila, maktab va jamiyat hamkorligini rivojlantirish, bolaning ehtiyojidan kelib chiqib pedagogik yordam ko'rsatish



Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi maxsus ehtiyojga ega bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam berishdan iborat. Inklyuziv ta'limning asosiy vazifalari, barcha bolalar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, nogironligi bo'lgan bolalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, o'quvchilarda bag'rikenglik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, bolalarning mustaqil hayotga tayyorlanishiga ko'maklashish. Mazkur vazifalar ta'lim tizimida insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari juda ko'p. Avvalo, imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarini jamiyatdan ajralgan holda his qilmaydilar. Ular sog'lom tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Sog'lom bolalar esa boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, yordam ko'rsatishni va bag'rikenglikni o'rganadilar. Bu esa jamiyatda mehr-oqibat va insonparvarlik muhitining shakllanishiga yordam beradi. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishda ayrim qiyinchiliklar ham uchramoqda. Ulardan biri pedagoglarning maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo'yicha malakasining yetarli emasligidir. Bundan tashqari, ayrim ta'lim muassasalarida moddiy-texnik baza talab darajasida emas. Maxsus o'quv qurollari, panduslar, liftlar va boshqa moslashtirilgan vositalarning yetishmasligi ham muammolarni keltirib chiqaradi. Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: Birinchidan, pedagog va psixologlarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish zarur. Ikkinchidan, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maxsus ehtiyojli bolalar uchun qulay sharoit yaratish talab etiladi. Shuningdek, ota-onalar bilan tushuntirish ishlari olib borish, inklyuziv ta'limning mazmuni va ahamiyatini keng targ'ib qilish muhim hisoblanadi. Ta'lim muassasalari, mahalla va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ham ijobiy natijalar beradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktablarda maxsus sinflar tashkil etilmoqda, pedagoglarning malakasi oshirilmoqda hamda xalqaro tajribalar o'rganilmoqda. Kelgusida inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish orqali barcha bolalarning sifatli ta'lim olish huquqini to'liq ta'minlash mumkin bo'ladi. Bu esa mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish va adolatli jamiyat qurishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ijtimoiy



Date: 09 June 2026

tenglikni qaror toptirish va insonparvar jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim orqali maxsus ehtiyojli bolalar o'z imkoniyatlarini namoyon etish, mustaqil hayotga tayyorlanish va jamiyatda munosib o'rin egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli inklyuziv ta'limni rivojlantirish barcha ta'lim muassasalari, pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning muhim vazifasi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari to'plami. – Toshkent, 2020–2025.
2. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
3. Mamatov Q. Inklyuziv ta'lim asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Xudoyberdiyev A. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent, 2022.

